

QOZIZODA RUMIYNING AXLOQIY QARASHLARI

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik
Universiteti 1-bosqich magistratura talabasi*

Rashidova Xushnoza Nuraliyevna

Annotatsiya: *Ilm-fan juda katta tezlik bilan rivojlanib borishida va yangiliklarning hozirgi kunda ko'payib borayotganida ajdodlarimizning hissalarini nihoyatda katta. Ushbu maqolada Movarounnahrda shuhrat qozonga matematik olim, astronom Qozizoda Rumiyning hayot yo'li va bizga qoldirgan boy me'rosi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, uyg'onish davri, mudarris, mansabi ta'zil, raddiya.*

Yurtimizda ta'lim sohasida katta o'zgarishlar bo'layotganiga qaramasdan ba'zi yoshlarimiz ushbu imkoniyatdan yetarli foydalana olmayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Bugungi kunda ta'lim tizimining zamonaviy differentsiatsiya, integratsiya sharoitida inklyuziv ta'limda inson omilining hal qiluvchi ahamiyati e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, jahon miqyosida yoshlar ilm olishida universal ta'lim inson huquq va erkinligi doirasida qabul qilingan. BMTning madaniyat va ta'lim tizimi Butunjahon o'qituvchilar kuni munosabati bilan «O'tgan davrda o'qituvchilar jamiyatdagi eng yuksak martabali yetakchilar ekanligi»ni e'lon qildi. Xalqaro hamjamiyat «COVID-19» sharoitida o'qituvchilarning har biri ta'lim tizimining barqarorligini ta'minlash, yoshlar ilm-fan asoslarini egallashida turg'unlikning oldini olish, raqamli ta'limga o'tishda o'z liderlik fazilatlarini namoyon etganliklarini e'tirof etdi. Dunyoning qator davlatlari ilmiy tadqiqot institut va universitetlarda International Association for the Evaluation of Educational Achievement ta'lim strategiyasi samaradorligining qiyosiy tadqiqotlari, Progress in International Reading Literacy Study o'quvchilarning fan asoslarini egallashi, International Civic and Citizenship Education Study dasturlarida ta'limda fuqarolik kompetensiyasi yo'nalishlari AQSH, Fransiya,

Germaniya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlar ta'lim samaradorligining omillari yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.¹ O'zbekiston hukumati ta'lim tizimidagi milliy uyg'onish, taraqqiyot maktab ostonasidan boshlanadi, degan tamoyil asosida islohotlarni amalga oshirmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning ta'lim tizimini «O'zbekistonda eng obro'li inson – muallim bo'lishi kerak!»,² degan g'oyasi milliy davlat siyosati darajasida davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarining negizi sifatida barcha shart-sharoitlar yaratmoqda. Natijada, respublikamizda 1700 dan ortiq ta'lim maskanlari zamonaviy axborot texnologiyalari bilan to'la qayta jihozlandi. Barcha viloyatlarda Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat boshladi. Zamonaviy ta'limda «Subyekt va subyekt», «Shaxs va shaxslar» tamoyilida o'qituvchi ijtimoiy maqomining mustahkamlanishida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda ilm-fan rivoji aholi turmush farovonligini ta'minlash omillaridan biridir. Chunki kelajak avlod tarbiyasi, avvalo, o'quvchilarning ilmiy savodxonlik darajasiga bog'liq bo'lib, bu o'qituvchilar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. Ammo mamlakatimizda ilm-fan va ta'lim sohasidagi muammolar, unga nisbatan bee'tiborlik, korrupsion xatti-harakatlar natijasida «katta jarlik» yuzaga keldi. O'tgan davr davomida muammolarning izchil yechimi berilmagan bo'lsada, bugungi kunda uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inidagi o'qituvchilarning kasbiy axloqiy qiyofasi va qadriyatlarini takomillashdi. «Ustoz-shogird» munosabatlari asosida an'anaviy va zamonaviy ta'lim qadriyatlarining hayotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga innovatsion yondashuv barqarorlashdi.³

¹ TA'LIM-TARBIYA HAQIDA SHARQ ALLOMALARI FIKRLARI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI Xulkar Turayevna Jalilova Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 9 | 2023

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O'RQ-901-son Pedagogning maqomi to'g'risida

³ UYG'ONISH DAVRI VA SHARQ MUTAFAKKIRLARI Doston Ergashev Shuhrat o'g'li JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS

Ilm-ma'rifat va jaholat dunyo bunyod bo'libdiki, yonma-yon yuradi. Biri buzadi, ikkinchisi dunyoni, insoniyat hayotini farovonlikka eltadi. Bunday yuksalishlar, taraqqiyot va nihoyat tamaddunlar tarixiga nazar tashlasak, ular boshida o'z hayotini o'sha ezgu maqsadlarga baxshida etgan fidoyi shaxslar turganiga guvoh bo'lasiz. Bunday odamlar butun faoliyatini, umrini, va hatto, shirin jonini shu maslak bilan bog'laydilar, o'zlariga buni sharaf deb biladilar. Ammo hayot shundayki, doim ham qo'l uzatgan, ko'zlagan marraga osonlikcha erishib bo'lmaydi. Buning mashaqqatlari, sinovlari ko'p. Shu ma'noda bugun biz yashayotgan kunlarimiz, tahlikali va notinch asrimiz ham qaysidir ma'noda ilm ma'rifatga, ziyoga ehtiyoj sezayotir. Taraqqiyotning cho'qqisiga chiqdik, deyilayotgan ayni damlarda ham yer yuzining ko'plab nuqtalarida urush olovi ko'zga tashlanadi. Irqchilik, millatchilik, diniy radikalizm, dunyoga egalik qilish balolari tez-tez sahnaga chiqmoqda. Albatta, bunday tahlikali zamonda to'g'ri yo'lni topish, mamlakat va xalq farovonligini o'ylab, huzur-halovatdan kechish, insonga munosib hayot barpo etish va bu yo'lda odamlarni o'z ortidan ergashtira olish kishidan katta mas'uliyat, bilim va fidoyilik talab etadi. Davlatimiz rahbari bugun ana shunday sifatlarga ega inson bo'lib, jamiyatda ma'naviy axloqiy tarbiyani kuchaytirish, farzandlarimizni ajdodlarimizga munosib avlod etib tarbiyalash borasida kuchini, g'ayratini ayamayapti. Prezidentimizning ma'naviyatchilar va ijod ahli bilan uchrashuvida jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgani, o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri mamlakatimizda ham sezilayotgani haqida bildirgan fikrlarini tinglab, xayolimdan beixtiyor shu o'ylar kechdi. Biz barchamiz ulug' ajdodlarimizdan ibrat olib, ularga munosib bo'lib, doimo ezgu orzu-intilishlar bilan yashashimiz kerak. Bunga albatta ta'lim va tarbiya, ma'naviy uyg'oqlik orqali erishishimiz mumkin. Biz ta'lim va tarbiyani faqat bizga berishlarini kutib o'tirmasligimiz zarur. Ajdodlarimizning boy me'rosini anglashimiz va o'rganishimiz orqali bu kunlarga qanday mashaqqat bilan erishganimizni anglashimiz mumkin.⁴

⁴ Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари. - Тошкент: Iqtisod-moliya, 2005. – 244 б.

Ta'lim islohotlari orqali esa O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi. Hammangizga yaxshi ma'lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. "Islom madaniyatining oltin asri" deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi.⁵

O'rganishimiz va anglashimiz zarur bo'lgan ko'plab nodir asarlar mavjud. Shu bilan birga o'rnak olsak arziydigan mashxur allomalarimiz ham yetarli. Xuddi shunday allomalardan biri Qozizoda Rumiidir. Ajdodlarimiz bir vaqtning o'zi bir necha fanlarni juda yaxshi bilishgan Ham dunyo ilmini, ham diniy bilimlarni puxta o'rganishgan

XV asr boshlarida Movarounnahrda shuhrat qozongan ulkan matematik va astronomlardan biri Qozizoda Rumiidir. Olimning to'liq ismi Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud. Qozizoda aslida hozirgi Turkiyaning

⁵ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. -183 б

shimoli-gʻarbidagi Marmara dengizidan janubroqdagi Bursa shahrida tavallud topgan. Uning otasi Muhammad “Xoja Afandi” laqabi bilan maʼlum boʻlib, Salohiddinning bolalik yillarida vafot etgan. Xoja Afandi olim va komil inson boʻlib, koʻp yillar Bursaning qozisi lavozimida xizmat qilgan. Salohiddinning tugʻilgan yili maʼlum emas. Turkiy manbalarda u hijriy 755–765 (milodiy 1354–1364)-yillar orasida tugʻilgan, deb taxmin qilinadi. Qozizoda boshlangʻich maʼlumotlarini Bursadagi madrasada olib, astronomiya va matematika boʻyicha bilimlarini mavlono Shamsiddin Fanoriydan oʻrganadi. Lekin u yoshligidan Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning yuksak darajada ekanligini eshitib, u yerga ketishga taraddud koʻra boshlaydi. Oila aʼzolari bu sayohatga monelik qilishlaridan qoʻrqib, buni sir tutadi. Qozizoda Rumiylar XIV asr oxirlarida toʻsatdan Bursadan gʻoyib boʻladi. Avvaliga u Xurosonga borib, u yerda poytaxt Samarqand shuhrati haqida eshitadi va oʻsha shahar tomonga intiladi. Bu orada Amir Temurning yetti yillik yurishi boshlanib qoladi. Qozizoda yoʻlda Amir Temurning ulamolari qatoriga qoʻshilib qolib, ular bilan orqaga qaytib, yurishda ishtirok etadi va shu ketishda oʻzining Bursadagi ustoz mullo Fanoriyning “Anmuzaji ulum” asariga sharh bitadi. ⁶Amir Temurning yetti yillik yurishi tugagach, 1404-yil yozida Salohiddin birinchi marta Movarounnahr poytaxti Samarqandga keladi. U Xuroson va Movarounnahrda kelib olimlardan tahsil olib, bilimlarini kamolotga yetkazadi. Xususan, Amir Temurning saroy astronomi Mavlono Ahmaddan astronomiya va matematika fanlaridan chuqur maʼlumotlar oladi. Tez orada Salohiddin Movarounnahr va Xuroson olimlari orasida “Qozizoda Rumiylar” (Usmonli turklar mulki boʻlib qolgan Kichik Osiyo, yaʼni qadimgi Rim imperiyasi yerlarini Sharqda Rum deyilar edi) nomi bilan shuhrat qozonadi.[8] 1405-yil boshidagi, Sohibqiron Amir Temur vafotidan keyingi, Movarounnahrda hukm surgan notinchlik Qozizodani Ulugʻbek bilan birgalikda Hirotga ketishga majbur qiladi. Bu yerda u bir necha yil davomida boʻljak buyuk olimga astronomiya va matematika fanlaridan saboq beradi va unda shu fanlarga

⁶ Abu Homid al-Gʻazzoliy. Ihyou ulumiddin. - Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2014. - 511b

nisbatan chuqur va soʻnmas mehr uygʻotadi. Ulugʻbek keyinchalik oʻz “Zij”ida Qozizodani minnatdorchilik bilan “ustozim” deb tilga oladi.⁷

Ulugʻbekning oʻzi aytganidek, uning ustozlari Qozizoda Rumiidir. Ulugʻbek Samarqandda 1417–1420-yillarda madrasa taʼsis etib, Qozizodani rais ul-muallimin nasabiga tayinlaydi va aksariyat hollarda uning darslarida oʻzi ham ishtirok etadi. Ulugʻbek madrasasi kvadrat shaklida boʻlib, uning toʻrt tarafida darsxonasi va har bir darsxonaning oʻz mudarrisi boʻlgan. Qozizoda madrasada darsga chiqquncha darsxonalarining talabalari oʻz mudarrisilari bilan chiqib, uni kutib turganlar. Bir kuni qandaydir sababga koʻra Ulugʻbek oʻsha toʻrt mudarrisdan birini taʼzil etadi, yaʼni koyib ishdan chetlatadi. Buni eshitgan Qozizoda raddiya sifatida darsga chiqmaydi va bu hol bir necha kun davom etadi. Ulugʻbek bundan ogoh boʻlib, Qozizodaning huzuriga boradi va uning sihat-salomatligini koʻrib, uning darsga chiqmayotganining sababini soʻraydi. Shunda Qozizoda bunday javob beradi: “Biz mudarrislikni hech bir kimsaga aloqasi va munosabati yoʻq bir mansab deb bilamiz. Hamda mudarrislik mansabi taʼzil joriy etilmaydigan mansabdir, deb hisoblardik. Holbuki, endi bu mansab ham sultronlik tasarrufida ekanligini koʻrdik. Binobarin biz ham endi oʻzimizni mudarrislik amalidan forigʻ etdik”. Ulugʻbek buni eshitib, oʻsha mudarrisni darhol oʻz vazifasiga tiklaydi va bundan buyon hech bir mudarrisni taʼzil etmasligi haqida vaʼda beradi. Qozizodadan esa darslarga yana chiqishini iltimos qiladi. Qozizoda Rumiyning bu qilgan ishida koʻrinib turibdiki yuksak bilimga ega boʻlsa ham ahloqiy tarbiyasi va vijdoni hechqachon oʻzgarmagan.⁸

Qozizoda Ulugʻbek madrasasida mudarrislik yillarida “sayyid as-sanad” deb tilga olinadigan Sayyid Sharif Jurjoniy nomli bir mudarris bilan muloqotda boʻladi. Qozizoda u kishi bilan koʻp mubohisa va munozara qilardi. Baʼzan shunday boʻlardiki, bu mubohisalarda ikkala shaxs ham bir-biriga nisbatan ovozi koʻtarar va tafovut, muxolifotga borardilar. Shunday hollarda Qozizoda Sayyid Sharifga nisbatan “matematik fanlarda qudratsiz” desa, Sayyid Sharif

⁷ Буюк юрт алломалари. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2016. – Б. 324.

⁸ . Мухаммаджонов А. Темура ва темурийлар салтанати. – Тошкент: Қомуслар бош тахририяти, 1996. -94 б

Qozizodaga “ta’bi matematik fanlarga mag‘lub va falsafiyotga mansub” der edi. Lekin ikkisi ham bir-birining asarlarini tahrir qilar va tortishuvga sabab bo‘lgan masalalarni talabalar oldiga qo‘yar edilar. Ulug‘bek Jamshid Koshiydan “Ziji Elxoniy” haqida va Marog‘adagi kuzatishlar haqida ko‘p eshitib, o‘zi rasadxona barpo etish va yangidan astronomik kuzatishlarni boshlashga tashabbus ko‘rsatadi. Rasadxona qurilishini Qozizoda bilan birga Jamshid Koshiy boshqaradi. Qurilish tugatilib, kuzatishlar boshlanishi bilanoq Koshiy vafot etadi. Bundan so‘ng ishlarga ilmiy rahbarlik Qozizodaning zimmasiga yuklanadi. U ham kuzatishlar oxiriga yetkazilmasdan vafot etadi. Endi kuzatishlarni davom ettirish navbati Ali Qushchiga keladi va u bu ishda katta jonbozlik ko‘rsatib, ustozini Ulug‘bek bilan ishni nihoyasiga yetkazadi. Qozizoda bilan Jamshid Koshiylar, shubhasiz, XV asr 1-yarmida Sharq va G‘arbning eng buyuk olimlaridan edilar. Ular ikkisining o‘zaro munosabatlari do‘stona edi va ular bir-biriga katta hurmat bilan qarar edilar. Xususan, Qozizoda Koshiyga “birodari a’zam” deb murojaat etardi. Qozizoda Samarqanddaligida juda ko‘p shogirdlar yetishtirdi. Bularning avvali va eng buyugi Ulug‘bekdir. Ikkinchi shogirdi Fathulloh Shirvoniy bo‘lib, u 1449-yili Ulug‘bek o‘ldirilishi bilan darhol Kichik Osiyoga ketadi va Kastamonu shahrida mudarrislik bilan shug‘ullanadi. Qozizoda Samarqandda uylanib, bu nikohdan bo‘lajak olim Miram Chalabiyning otasi Qutbiddin dunyoga keladi. Qozizodaning vafot etgan yili ham ma’lum emas. Lekin bu voqea 1426–1436-yillar orasiga to‘g‘ri keladi, deb taxmin qilinadi. Olimning qalamiga mansub asarlar quyidagilardir:

“Risola fi-l-hisob” (“Hisob haqida risola”). Arifmetikaga doir arab tilida yozilgan risola bo‘lib, unda kasr va butun sonlarning o‘nlik uslublaridagi hisobi bayon etilgan. Risola 1382-yili Bursada yozilgan. Ikkita qo‘lyozmasi Mashhadda imom Rizo kutubxonasida saqlanadi.⁹

“Sharhi mulaxxis fi-l-hay’a” (“Astronomiya haqida qisqacha risolaning sharhi”). Asar Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Xorazmiy al-

⁹ Safarov, M.K. (2023). Abu bakr ar-Roziyning “Tibbi Ruhoniy (Ruh tibbiyoti) asarida g‘azabni va insonning o‘z kamchiliklarini bartaraf qilish haqida mulohazalar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 2(3), 214-219

Chag‘miniyning (XIII asr) “Mulaxxas fi-l-xaya” nomli asariga arab tilida yozilgan sharhidan iborat. Sharh 1412-yili Ulug‘bek uchun Samarqandda yozilgan. Risolaning 150 dan ortiq qo‘lyozma nusxalar dunyodagi turli kutubxonalarda saqlanadi. “Sharhi ashkol at-ta’sis”. Bu risola XV asrda yashagan matematik Shamsiddin Samarqandiyning “Ashkol at-ta’sis” (“Asoslangan jumlar”) nomli geometriyaga doir risolasiga arabchada yozilgan sharhdir. Bu ham 1412-yili Samarqandda Ulug‘bek uchun yozilgan. Hozirgi kunda 70 dan ortiq qo‘lyozmalari bo‘lib, turli kutubxonalarda saqlanadi.

“Risola al-jayb” (“Sinus haqida risola”). Bu risolada bir darajaning sinusini aniqlashning yangi bir usuli bayon etilgan, arab tilida Samarqandda yozilgan. Uning ikki qo‘lyozmasi Istanbulda Sulton Muhammad kutubxonasida saqlanadi. “Dar bayoni istirohati jaybi yak daraja” (“Bir daraja sinusini aniqlash usulining bayoni haqida”). Bu risola ham oldingi risola mavzusiga bag‘ishlangan va fors tilida Samarqandda yozilgan.

“Dastur al-amal va tashiq al-jadval” (“Amal dasturi va jadvallarini tuzatish”). Arabchada yozilgan va Ulug‘bek “Zij”idagi bir matematik masalaning sharhiga bag‘ishlangan. Birgina qo‘lyozmasi Tbilisida saqlanadi.

“Misoxa” (“O‘lchash”). Arab tilida yozilgan. Yuzalarni o‘lchashga bag‘ishlangan risola. Bir nusxasi Mashhadda Mavlaviy kutubxonasida saqlanadi.

“Risola fi-l-hay’a va-l-handasa” (“Astronomiya va geometriya haqidagi risola”). Birgina nusxasi Turkiyada, Bursa shahrida saqlanadi.

“Sharhat-Tazkira”. Nasiriddin Tusiyning “At-Tazkira” nomli arab tilidagi risolasiga sharh. “Sharh Tahrir al-Majistiy” arab tilida yozilgan. Astronomiyaga doir risola, ikki qo‘lyozmasi Berlin va Londonda saqlanadi. “Risola fi ilm al-hay’a” (“Astronomiya ilmi haqida risola”). Birgina qo‘lyozmasi Sankt-Peterburgda saqlanadi.

“Risola fi rub’ al-mujayab” (“Sinus kvadrat haqida risola”). Arab tilida yozilgan. Qo‘lyozmalari Sankt-Peterburg, Mashhad va Tehran kutubxonalarida saqlanadi.

“Lima kana halla kavni nisba irtifa’ a’zam al-jibol ila qutri al-arz kanisba sub’ard sha’ira ila zira” (“Nima uchun tog’larning eng balandining Yer diametriga nisbati arpa donining bir gazga nisbati kabi ekanligi qabul qilingani”). Yer o’lchamiga bag’ishlagan arab tilidagi risola. Birgina qo’lyozmasi Berlinda saqlanadi.

“Risola fi samiy al-qibla” (“Qibla azimuti haqida risola”). Qo’lyozmasi Bursada (Turkiya) saqlanadi.

“Sharh hikmat al-ayn”. Al-Qazviniyning “Hikmat al-ayn” nomli risolasiga sharh. Arab tilida yozilgan. Qo’lyozmalari Bog’chasaroy (Qrim), Berlin, Dushanbe, Qozon, Qohira va boshqa ko’plab shaharlardagi kutubxonalarda saqlanadi.[3]Ulug’bek rasadxonasining yetuk namoyondalaridan sanalgan va Ulug’bekdek buyuk olimni tarbiyalagan Qozizoda Rumiyl qoldirib ketgan adabiy-ilmiy meros bugungi avlodning oltin mulki hisoblanadi. Lekin shuni ham ta’kidlab o’tish joizki, bu olimning qator asarlari o’z tadqiqotchilarini hanuzgacha kutmoqda.

Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda». Sharq xalqlari ko’p asrlarga borib taqaluvchi madaniyatga ega ekanligi hammaga ayon. Ana shu madaniy yodgorliklar inson qo’li, aqli, mahorat va malakasi o’tmishdan qabul qilib olgan hayotiy tajribasi natijasidagina milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga, san’at va adabiyot asarlariga aylangan demak, madaniyat o’zo’zidan paydo bo’lib qolmay, ko’p darajada ta’lim va tarbiya mevasi sifatida shakllangan. Ba’zida o’ylanib qolamiz ajdodlarimiz bir vaqtning o’zida bir necha fanlar bilan shug’ullanib juda ko’plab ilm-fanda yangiliklarni kashf qilishgan., biz esa ular bizga qoldirgan asarlarni hatto o’rganishga yaramayabmiz. Zero ular bizga fanda juda katta yangiliklarga yo’l ochib berishgan.Bilimli va dono bo’lishlariga qarmasdan ulardagi soddalik va kibrdan holi bo’lganliklaridan o’rnak olsak arziydi. Yurtimizda kundan-kunga bizga yaratilayotgan sharoitlar ortib bormoqda. Xususan yurtboshimizning pedagoglar maqomini tillanishi to’g’risidagi qonun ham bizga va ta’limga qanday

yoʻl ochilayotganidan darak beradi. Shunday ekan bu imkoniyatlardan toʻgʻri foydalanish va kelajakda yurt koriga yaraydigan insonlar boʻlish bizning burchimizdir. Axloqiy qarash – oila, jamoa va jamiyatdagi intizomning muhim omilidir, uning vositasida intizom tuygʻusi shakllangan kishi oʻz xalqi va Vataniga sadoqat bilan xizmat qiladi, har bir ishni oʻz vaqtida sidqidildan bajaradi. Nemis va yaponlarga xos tartib va intizomning negizida ham axloqiy qarashlarning mustahkamligi mujassam. Bugungi shiddatli globallashuv jarayonlari butun dunyoni oʻrgimchak toʻridek qamrab, Yer shari yaxlit ijt-y makonga aylanib borayotgan ekan, hech bir inson bu oʻzgarishlardan chetda qolmaydi. Oʻz mohiyatiga koʻra, ham noyob, ham murakkab boʻlgan bu hodisa oddiy inson uchun aql bovar qilmas qulayliklar, koʻzni qamashtirar darajadagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarishi bilan birga, talaygina muammolar, tashvish va xavotirlar ham tugʻdirmoqda. Ularning qarshisida odamzod ojiz qolmoqda. Eng yomoni, insonning dunyoqarashi, his-tuygʻular olami, maʼnaviyati jiddiy xavf ostida qolmoqda, baʼzan axloq meʼyorlari ham unutilmoqda. Shunday qaltis vaziyatda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish, el-yurt, keng jamoatchilik eʼtiborini bu masalalarga qaratish, yosh avlodni maʼnaviy sogʻlom va barkamol etib tarbiyalash, ularda axloqiy qarashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faqat uygʻoq qalb, teran nigoh va ezgu fikrli kishilargina bunday sharoitda ichki muvozanatni yoʻqotmasdan, moddiy va maʼnaviy mezonlar uygʻunligi asosida yashay oladi. Boshqacha aytganda, jamiyatda sogʻlom muhitni saqlab qolish, uni har tomonlama mutanosib rivojlantirish uchun ham maʼnaviyat, uning amaldagi ifodasi boʻlgan axloq meʼyorlari suv bilan havodek zarur.

Bu hayot haqiqatini ham tarixiy va hayotiy dalillar, falsafiy mushohadalar, insoniy kechinmalar orqali yoshlarga anglatish talab etiladi. Azaldan xalqimiz tabiatida jamoaviylik, hamjihatlik, yuksak axloq va odob meʼyorlari hamda anʼanalari asosida yashash hissi ustuvor boʻlib keladi. Bu xalqimiz yashagan daryo boʻylari va vodiylardagi tabiiy sharoitdan kelib chiqadi. Xalqimiz asrlar davomida qadimiy sivilizatsiya va madaniyat asoslarini yaratish asnosida nafaqat cheksiz moddiy neʼmatlar, balki beqiyos maʼnaviy moʻjizalar, sharqona axloqni

ham bunyod etgan. Ta'kidlash zarurki, har bir insonning axloqiy qarashi o'ziga xos tizim bo'lib, ular o'zaro birikib, yaxlit va yagona olamga aylansa, butun bir xalq, millat va jamiyatning axloqiy qarashi bunyod bo'ladi. Bu axloqiy qarash yuksalgani sari xalq va millatning kuch-qudrati ham ortib boraveradi, yengilmas kuchga [aylanadi](#).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. TA'LIM-TARBIYA HAQIDA SHARQ ALLOMALARI FIKRLARI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI Xulkar Turayevna Jalilova Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 9 | 2023
2. UYG'ONISH DAVRI VA SHARQ MUTAFAKKIRLARI Doston Ergashev Shuhrat o'g'li JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. -183 б.
4. Abu Homid al-G'azzoliy. Ihyou ulumiddin. - Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2014. - 511b.
5. Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари. - Тошкент: Iqtisod-moliya, 2005. – 244 б.
6. Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафатул қулуб (Қалблар кашфиёти). – Тошкент: Movarounnahr, 2014. - 480 б.
7. Буюк юрт алломалари. – Тошкент: О'zbekiston, 2016. – Б. 324.
8. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. -94 б
9. Safarov, M.K. (2023). Abu bakr ar-Roziyning “Tibbi Ruhoniy (Ruh tibbiyoti) asarida g'azabni va insonning o'z kamchiliklarini bartaraf qilish haqida mulohazalar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 2(3), 214-219.